



UDK:159.9

Shahista ALLAMOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: shoxista8327@mail.ru

O'zMU professori D.Muxamedova taqrizi asosida

“EXPERIMENTAL STUDY OF INTELLECTUALLY SUCCESSFUL TEENAGERS”

Annotation

If conditions have been created in the educational process that allow the formation of the socio-psychological characteristics of intellectually successful children; if during the lesson various questions of creative thinking are used; If students are given an idea of the psychological foundations of the formation of intellectual characteristics, then the development of socio-psychological characteristics of intellectually successful children will increase.

Key words: Intellectual, adolescence, mental development, educational system, social psychological characteristics.

“ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО УСПЕШНЫХ ПОДРОСТКОВ”

Аннотация

Если в образовательном процессе созданы условия, позволяющие формировать социально-психологические характеристики интеллектуально успешных детей; если в ходе урока используются различные вопросы творческого мышления; если учащимся дается представление о психологических основах формирования интеллектуальных характеристик, тогда повысится развитие социально-психологических особенностей интеллектуально успешных детей.

Ключевые слова: Интеллектуал, подростковый возраст, психическое развитие, социально-психологические характеристики.

“INTELLEKTUAL MUVAFFAQIYATLI O'SMIRLARNI EKSPERIMENTAL O'RGANILISHI“

Аннотация

Ta'lim jarayonida intellektual muvaffaqiyatli bolalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlari shakllanishiga imkon beradigan sharoitlar yaratilsa; dars jarayonida har xil ijodiy fikrlashga yo'naltiruvchi masalalardan foydalanilsa; o'quvchilarga intellektual xususiyat shakllanishining psixologik asoslari haqida tushunchalar berib borilsa ularda intellektual muvaffaqiyatli bolalarning ijtimoiy psixologik xususiyatlarini rivojlanishi unumi oshganligi xaqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Intellekt, o'smirlik davri, psixik rivojlanish, ta'lim tizimi, ijtimoiy psixologik xususiyatlar.

Kirish. Ta'lim jarayonida maktab o'quvchilarida intellektning o'ziga xos muvaffaqiyatlarini shakllantirish hozirgi davr nuqtai nazaridan har bir shaxsning kamolot bosqichi uchun e'tibor talab etadigan muammo sanaladi. Mazkur jarayonning qaysi bosqichida yuqori samara berishi mumkin, degan savol to bugungi kungacha psixologlarni o'ziga jalb etadi.

O'smirlarda intellektual muvaffaqiyatning uzluksiz ravishda shakllanishini shaxsiy pozitsiyadan kelib chiqqan holda bir qator munosabatlar tizimi orqali baholashga to'g'ri keladi. Bunda birinchidan, qaysidir o'rinlarda intellekt muvaffaqiyatlarining rivojlanishi muayyan ko'rinish olishi, ikkinchidan, shaxsning muvaffaqiyati tarzida o'rin egallashi lozim, degan mulohaza orqali ushbu holatni uyg'unlashtirish mumkin. Ammo pedagogik jarayonda o'quvchilar shaxsining muvaffaqiyatlarini ko'p jihatdan belgilovchi o'qituvchi va unga mutanosib ravishda o'z xatti-harakatini, xulq-atvorini aniqlovchi sinaluvchining ma'lum vaziyatlarda o'zini o'zi boshqarishini tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Biz mazkur holatni pedagogik jarayonda umum ta'lim tizimida o'quvchilarda intellektual muvaffaqiyatlarni shakllantirishning samarali jihatlarini tadqiq etishni lozim topdik. Ushbu muammo yuzasidan ayrim psixologik sifat tahlillaridan namunalar keltirib o'tamiz.

Uzluksiz ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida intellekt muvaffaqiyatlarining shakllanishi to'g'risida so'z yuritilganda bir qator omillarga e'tibor qaratish lozim. Ammo bizning tadqiqot ob'ektimiz maktab o'quvchilari bo'lganligi sababli ularni o'rganishning ikki ahamiyatli jihatini hisobga

olishga to'g'ri keladi. Birinchidan, ular kichik maktab yoshidagi o'quvchilar singari o'quvchilik maqomiga ega bo'lsa, ikkinchidan, ularning oldida maktabni tugatish orqali ta'lim jarayonida ishtirok etishda o'zining shaxsiy fazilatlarini bilan bir qatorda shaxsiy xislatlarini shakllantirishni taqozo etuvchi sub'ekt faoliyatining gavdalanishi turibdi. Maktab o'quvchilarida intellektning intellektual muvaffaqiyatlarini shakllantirishni muammo sifatida o'rganishimizning mazmun-mohiyatida ham xuddi shu masala ko'ndalang turadi. CHunki, maktab ning shart-sharoitida u o'zida dastlabki pedagogik kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lmas ekan, unda shaxsiy namuna sifatida ta'lim jarayonida o'z o'rnini topish yuzasidan o'zi ham jamiyat tomonidan shubha ostida qoladi. Biz shunga o'xshash holatlarni hisobga olgan holda o'quvchilarda intellektning irodaviy va intellektual muvaffaqiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan dastlabki aniqlovchi tadqiqot natijalarining tahliliga murojaat etib ko'ramiz.

Tadqiqotimizda maktab o'quvchilarining intellektual muvaffaqiyatlarini o'rganishning yaxlit metodikalari majmuasi mavjud bo'lmaganligi sababli ham bir qator shaxsning irodaviy sifatleri hamda intellektual muvaffaqiyatlarini shakllanganlik darajasini aniqlash metodikalarini o'zaro uyg'unlashtirgan tarzda foydalanishni lozim topdik. Bunda A.Alekseev va L.Gromovalarning "Individual tafakkur stili" testi, boshqa shunga o'xshash bir qator metodikalardan foydalanishni nazarda tutdik.

Biz o'z tadqiqotimizda intellektual muvaffaqiyatlari shakllanishining mexanizmlariga bag'ishlangan bosqichi bilan

bir qatorda, ularning tarkib topishi jarayoniga ta'sir ko'rsatuvchi turli muvaffaqiyatli shart-sharoitlar, ob'ektiv va sub'ektiv ta'sirlar oqibatida yuzaga keluvchi xavotirlanishga daxldor emotsional holatlar bilan hamohanglikda o'rganishni rejalashtirganmiz. Ular yuzasidan tajriba davomida to'plangan empirik natijalar bo'yicha miqdor tahlillariga to'xtalib o'tamiz.

Biz Maktab o'quvchilarida intellektual muvaffaqiyatlarini ham o'rganish bo'yicha eksperimental izlanishimizning xususida mulohaza yuritishimizga to'g'ri keladi. Buning uchun ular tafakkurining originalligi, labilligi, muammolarni tahlil etuvchanlik, yangicha yondashish, originallik bilan murakkabliklarga nisbatan kombinatsiyalarni hosil qildik. Ularning har xil fikrlarni umumlashtirishga ham moyilliklarini, muammolar echimiga nisbatan amaliy faoliyati, muammoga nisbatan tizimli va atroflicha mulohaza bildirishga o'rganganligi, mazkur muammoga nisbatan aloqadorligi masalasi tadqiq etishga e'tibor qaratdik. Buning uchun biz "Tafakkurning individual stillari" (uslublari) (A.Alekseeva va L.Gromovalar metodikasiga tayandik;) Eksperimentning aniqlovchi bosqichida o'quvchilarning tafakkur stillarini ta'lim sharoitida qanday ko'rinishda shakllanayotganligini baholashga erishdik. Natijalarning miqdoriy tahlilida ularning ta'lim bosqichlari, umumiy ko'rsatkichlari hamda irodaviy va intellektual muvaffaqiyatlarni o'zaro aloqadorlikda o'rganishga harakat qildik. Endi natijalarning tahliliga murojaat etaylik. Empirik miqdorlarimiz shu narsani ko'rsatmoqdaki, metodikaning muvaffaqiyatiga ko'ra, tafakkur stillarining har bir aqliy darajasiga xos bir nechta ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi.

Masalan, sintetik tafakkur stili orqali originallik, ziddiyatli holatlarga nisbatan kombinatsiyalashgan g'oyalarga tayanish, ular boshqalarning fikr-mulohazalaridan farqli o'laroq o'zlarining alohida nuqtai nazariga ega ekanligini baholash imkonini beradi. G'oyaviy tafakkur stilda esa

Dastlabki tadqiqot natijalarining sifat va miqdor jihatdan tahlili.

O'smirlarda intellektual muvaffaqiyatlarini o'rganishning umumiy natijalari

Umumiy	1	2	3	4	5	6
Sintetik	45%					
G'oyaviy		34%				
Pragmatik			23%			
Analitik				44%		
Realistik					12%	
Labillik						33%

O'quvchilarda aqliy muvaffaqiyatlarning shakllanganligini baholashda quyidagi ahamiyatga ega bo'lgan korrelyatsiya koeffitsientlari aniqlandi: "sintetik" muvaffaqiyatlar 45%, "g'oyaviy" 34%; bundan ko'rinadiki, ularning ta'lim jarayonida o'quv predmetlarini o'rganishdagi aniq munosabatlarini shakllantirishga e'tibor qaratilganligi ular uchun emotsional, utopik va sub'ektiv momentlarning ahamiyatidan ko'ra, umumlashtirish natijalarini bir-biriga bog'lay olish, ularda taqqoslash operatsiyasining o'sishi muhimroq ahamiyat kasb etganligini ko'rsatdi. Ammo o'z o'rnida pedagogning timsolida muvaffaqiyatlarni shakllanish jarayonida o'quvchilar sub'ektiv momentlarni hisobga olishga va emotsional omillar ahamiyatini esa baholashga to'g'ri keladi.

O'quvchilar shaxsida mujassamlashishi kuzatilayotgan "nazariy mulohazalash" o'z o'rnida fan taraqqiyotida ilgari surilgan mulohazalarni isbotlashning guvohi bo'ldi: "g'oyaviylik" ularning "amaliyotchilik" muvaffaqiyatlarini o'z-o'zidan taqozo etmoqda: - "pragmatik" 23%; analitik - 44% fikrlash qobiliyati mujassamlashganligidan dalolat bermoqda. Korrelyatsiya koeffitsientlaridagi bunday ijobiy holatlar o'quvchilarning pedagog sifatida shakllanishida nazariy mulohazalash bilan amaliy tajribalarga va yaqqol natijalar

maqsadga erishishda, ehtiyojlarga qiziqish yuqoriligi, muammoli vaziyatlar sharoitida boshqalarning fikrini ichki ziddiyatlarsiz idrok etishni va qabul qilishni, u emotsiya intellektidagi his-tuyg'u hamda baholashning sub'ektiv momentlarida etakchilik qilgan vaziyatlarni baholashni tavsiflaydi. Pragmatik tafakkur stiliga ega bo'lgan o'quvchilar o'z ishlarini ta'lim jarayonida to'plagan tajribalariga tayanib ish tutishi bilan tafovutlanib turadi. Shuningdek, pragmatik tafakkur stili-o'quvchini bevosita tajribasiga asoslanib, materiallar va axborotlarni yaqqol natijalar olishi uchun foydalanishga asoslangan fikrlash usuli. Ular talablarni yaxshi his etishadi, xulq-atvor taktikasini oson tashlaydilar Vaziyatlarni o'zlarining hisobiga o'zgartirishga, sharoitlarga moslashuvchan va qayishqoqlikka egalikni anglatadi.

Agar o'quvchidan analitik tafakkur stili bo'lsa, u muammoga tizimli va atroflicha hamda mezonlar asosida ko'rib chiqishga, fikrlash usuliga, mantiqiylikka, o'z uslubiga ega va muammoni xotirjam hal etishga moyil bo'ladi. U muammoni echishdan oldin, kerakli ma'lumotlarni to'playdi va batafsil rejalashtiradi.

Realistik tafakkur stili etakchilik qilgan o'quvchi muammolarga faktlarga tayanib yondashadigan fikrlash usuliga ega sanalib, aynan masalaga omilkor yondashuvi va uning guvohi bo'lishga moyilligidan dalolat beradi. Realistik tafakkur egalari muammoga aniqlikni bilan yondashishni ma'qul ko'rishadi.

Tajribamizda o'quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini o'rganish bo'yicha natijalar tahliliga e'tibor qaratamiz. Ular aqliy jihatlarining umumiy natijalarida o'zaro munosabatlarini aniqlashga (ularning korrelyatsiya koeffitsientlarini aniqlashga) erishdik.

O'quvchilarda tarkib topishi kutilayotgan intellektual muvaffaqiyatlarni shakllanganlik darajasini tadqiq etish bir qator ilmiy taxminlarni ilgari surishimizga sabab bo'ldi.

olishning oson yo'llariga tayanishni, har bir qilinadigan ish nimagadir qo'l kelishi lozim tamoyiliga amal qilishlarini ko'rsatadi. Biroq tatbiq etilgan metodika shakllarining muvaffaqiyatiga ko'ra, pragmatik mulohaza yuritishga moyil o'quvchilar xulqida yuzakichilik, betartiblik kuzatilishi mumkinligini izohlaydi. SHuningdek, ularning fikrlashida ayrim voqea-hodisalar tasodifiy holatlarga bog'liq, degan tamoyilga tayanadi. Tadqiqotdan olingan bunday natijalarga binoan pedagog mutaxassis sifatida bu tarzda fikrlash maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaymiz.

Ularning pragmatik fikrlashi, o'z navbatida - "analitik"-23%; va "realistik"-12% fikrlash stili bilan uyg'unlashtira olingan. Bunday psixologik voqelikni ijobiy holat, deb baholash mumkin. O'quvchilarda amaliy fikrlashning o'sishi bilan ularda mantiqiy fikrlash, ko'rilayotgan masalaga tizimli va atroflicha yondashish, uslubiy talqin, muammoni hal etish manyovrlarining shakllanishi; faktlarga tayanish, voqea-hodisalariga o'zi shaxsan guvoh bo'lish istagini bildirishi mumkinligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalarini tahlil etish jarayonida afsuslanish bilan e'tibor qaratishga to'g'ri keladigan ko'rsatkich mavjud, ya'ni o'quvchilarda "analitik" fikrlash stili tafakkurning labilligi bilan teskari korrelyatsiyani hosil

qilgan; agar ularda tafakkur labilligida sustlik bo'lsa, o'z navbatida analitik muvaffaqiyatning ham pasayishiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Chunki, tafakkur qilishdagi labillikning zaifligi ta'lim jarayonida bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish uchun qiyinchilik tug'diradi. Demak, maktab o'quvchilarining intellektida tahlilchanlik muvaffaqiyati shakllanishida labillikning etishmasligi muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda, deyishimiz mumkin.

Maktab o'quvchilarining aqliy muvaffaqiyatlarini shakllanganlik ko'rsatkichining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularda vaziyatlarni baholash bilan o'qish jarayonida o'zlashtirilayotgan bilimlarni umumlashtirishda, bilimlar, voqea-hodisalar orasidagi umumiy bog'lanishlar hosil qilish darajasidagi intellektual muvaffaqiyatlar etishmayotganligidan dalolat bermoqda. SHuningdek, ulardagi g'oyaviy fikrlashga moyillikning ortib borishi, o'z navbatida atrof-muhit to'g'risida, vaziyatlarni baholash bo'yicha ularda oson erishilishi ko'zda tutilgan axborotlarni o'zlashtirishga, tezroq natijalarni qo'lga kiritishga ixtiyor etishning shakllanishiga olib kelmoqda. Bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim jarayonida o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirilishi ko'proq ularning kelajak, istiqbol ahamiyatidan ko'ra, ayni damda egallangan real natija, ya'ni mashg'ulotlarda olingan bahoning qiymati muhimroq tus olishi ahamiyatli ekan. Bundan shu narsa ravshanlashadiki, ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarda intellektual muvaffaqiyatlarning shakllanishida pragmatik nuqtai nazardan mulohaza yuritish sifatlarining tarkib topishidan ko'ra, real va yaqqol amaliy muvaffaqiyatga ega bo'lgan fikr yuritishini aniqlik, originallik, mustahkamlik muvaffaqiyatlarini taqozo etadi.

Yana shuni e'tiborga olishni tajriba taqozo etmoqdaki, o'quvchilarda muammolarga nisbatan "g'oyaviy" stilda yondashishning o'sishi oxir-oqibatda "tahlilchanlik"ning rivojlanishiga sabab bo'lar ekan. Aslida esa ularning fikrlashida tahlilchanlik muvaffaqiyatining shakllanishi ijobiy hol, ammo u aniq dalili-ashyolarga tayanishga, uning echimini ko'rsata bilishga moyillik bo'lmasa-da, u demagoglikka, hozirjavoblikka, so'zamolikka aylanib qolmasa, degan xavotirlanishni uyg'otadi. O'ylaymizki, tahlilchanlikning yaqqol shaxs intellektining sifatiga aylanishi esa uning realistlik, sintetik, muammolarni hal etishda vaziyatlarni har tomonlama ko'ra olishi bilan uyg'unlik hosil qilishi lozim edi. Lekin bunday uyg'unlik esa tajribamiz davomida kuzatilmadi.

Tadqiqot metodlari.

1. Ta'lim jarayonida individual tafakkur stilini o'rganish bo'yicha A. Alekseev va L. Gromovalarning testi;

2. G. Gardnerning tomonidan ishlab chiqilgan "Intellekt tiplari" anketasi.

Xulosa va takliflar. Umum ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarini hisobga olmasdan turib, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, mustaqil, ijodiy fikrlovchi, ma'naviyati mukammal shaxsni shakllantirish mumkin emas. Mazkur mavzuga bag'ishlangan tadqiqotimizning natijasida ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning intellektual muvaffaqiyatlarni shakllan-tirishning psixologik asoslari, omillari, qonuniyatlari to'g'risidagi farazlarimiz tasdiqlandi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagicha xulosalar chiqarishga imkon bo'ldi.

1. Maktab o'quvchilarida intellektual muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarni shakllantiruvchi, samaradorligini ta'minlovchi, ularda o'zlashtirishning tarkib topishiga salbiy ta'sir qiluvchi pedagogik-psixologik, hissiy-emotsional, tarbiyaviy omillarni hisobga olish ham nazariy, ham amaliy muvaffaqiyatga ega bo'lgan materiallarni tiplarga ajratishga imkon tug'dirdi.

2. Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar tahlilining ko'rsatishicha, uzoq tarixga ega bo'lgan o'zbek xalqining ijtimoiy-madaniy muhiti, turmush tarzi, madaniyati, ta'lim-tarbiyasi, milliy ongi va o'z-o'zini anglashi, qadriyati o'ziga xosligini o'rganish ta'lim-tarbiya jarayonida maktab o'quvchilarida intellektual muvaffaqiyat muvaffaqiyatlarni shakllantirishning psixologik mexanizmlarini aniqlashga imkon berdi.

3. Zamonaviy ta'lim va tarbiyaning inson kamolotidagi o'rni, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish qonuniyatlari, o'qituvchi namunasi, uning psixologik ta'sir o'tkazishiga qo'yiladigan talablar aks etgan asarlar maktab maktab o'quvchilarida intellektual muvaffaqiyatni shakllantirishda samarali material, ob'ektiv va sub'ektiv omillarning yaqqol manbai sifatida xizmat qildi.

4. Zamonaviy ta'lim va tarbiyaning o'smirlar kamolotidagi o'rni, o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish qonuniyatlari, ilimolishda o'qituvchi namunasi, uning psixologik ta'sir o'tkazishiga qo'yiladigan talablar aks etgan manbalar maktab o'smirlarda intellektual muvaffaqiyatni shakllantirish orqali komil insonni shakllantirishda ob'ektiv va sub'ektiv omillarning manbasi ekanligini ko'rsatdi.

5. Maktab o'quvchilarida ta'lim-tarbiya jarayonida intellektual muvaffaqiyatni shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi, unumini oshiruvchi, ularda o'zlashtirishning tarkib topishiga ijobiy ta'sir qiluvchi pedagogik-psixologik, hissiy-emotsional omillarni hisobga olish ham nazariy, ham amaliy muvaffaqiyatga ega bo'lgan manbalarni mavjudligi namoyan bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Amonashvili SH.A. Obuchenie, otsenka, otmetka // Ser. Pedagogika i psixologiya, № 10, M.: Znanie, 1980. – S.80-96.
2. Ananev B.G. Izbrannye psixologicheskie trudy. V 2-x tomax. M.: 1980. - 10-110 s.
3. Ananev B.G. Problemy formirovaniya intellekta. L.: 1949. - 20-98 s.
4. Ananev B.G. CHelovek kak predmet poznaniya. L.: LGU, 1969. - 33-80 s.
5. Andreeva I.N. Predposylki razvitiya emotsionalnogo intellekta. // Voprosy psixologii. 2007, - № 5. – S.57-66.
6. Andreeva I.N. Emotsionalnyy intellekt: issledovaniya fenomena. // Psixologicheskiy jurnal, - M.: 2006. № 3. –S.78-87. 7.
7. Andrushenko T.YU. Psixologicheskie usloviya formirovaniya samoosnki v mladshem shkolnom vozraste // Avtoref. dis. kand. ped. nauk. - M.: 1978. – 28-32 s.
8. Andrushenko T.YU. Psixologicheskie usloviya formirovaniya samoosnki v mladshem shkolnom vozraste // Avtoref. dis. kand. ped. nauk. - M.: 1978. – 28-32 s.